

**BIOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019. K/B. 37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

DJURAYEV ALISHER JANIKULOVICH

**GLITSIRRET KISLOTASI HOSILALARI SINTEZI VA BIOLOGIK
FAOLLIGI**

02.00.10 – Bioorganik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Djurayev Alisher Janikulovich

Glitsirret kislotasi hosilalari sintezi va biologik faolligi..... 3

Джураев Алишер Жаникулович

Синтез и биологическая активность производных глицирретовой
кислоты..... 21

Djuraev Alisher Janikulovich

Synthesis and biological activity of glycyrrhetic acid derivatives..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 44

**BIOORGANIK KIMYO INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019. K/B. 37.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

DJURAYEV ALISHER JANIKULOVICH

**GLITSIRRET KISLOTASI HOSILALARI SINTEZI VA BIOLOGIK
FAOLLIGI**

02.00.10 – Bioorganik kimyo

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/K637 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.edu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta‘lim tarmog‘ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Esanov Rahmat Sulton o‘g‘li
PhD, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Abdulladjanova Nodira Gulomjonovna
kimyo fanlari doktori, professor

Isayev Yusuf Tojmamatovich
kimyo fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Bioorganik kimyo instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.K/B.37/01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «___» _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100125, Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek ko‘ch., 83. Tel.: (99871) 262-35-40, faks: (99871) 262-70-63).

Dissertatsiya bilan Bioorganik kimyo instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100125, Toshkent sh., Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi, 83. Tel.: (99871) 262-35-40, faks: (99871) 262-70-63, e-mail: info@biochem.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «___» _____ da tarqatildi.

(2024 yil _____dagi ___ raqamli reestr bayonnomasi)

Sh.I.Salixov

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, b.f.d., akademik

N.R.Xashimova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d.

M.B.Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda tabiiy biologik faol moddalarni kimyoviy modifikatsiya qilish va ular asosida tibbiyotda virusli kasalliklarini davolash hamda profilaktikasi, turli xil etiologiyali immunotanqisliklar uchun yangi dori vositalarini yaratish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Hozirda tibbiyot amaliyotida va qishloq xo'jalik maqsadlarida qo'llaniluvchi aksariyat vositalar asosini biologik faol moddalarning kimyoviy modifikatsiya qilingan hosilalaridan olinishi hamda ularning organizm uchun mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlarni minimallashtirish yoki terapevtik mexanizmlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda dunyoda biologik faol birikmalarga boy bo'lgan o'simlik manbalarini izlab topish hamda kimyoviy tarkibini aniqlash, undagi asosiy biologik faol moddalarni ajratib olish va ularni kimyoviy modifikatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamda ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada biologik faol triterpen kislotalari hosilalari asosida preparatlar yaratishda biologik faol moddalarga boy tabiiy manbalarni topish, ulardan biologik faol birikmalarni ajratib olish, ularni modifikatsiya qilish, tuzilishi va biologik faolliklari orasidagi bog'liqlikni tadqiq qilishning zamonaviy usullarini aniqlash hamda ular asosida yangi samarali dori vositalarini yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda mahalliy xomashyolar asosida yangi, samarali, import o'rnini bosuvchi dorivor preparatlar ishlab chiqishga va aholini sifatli dori-darmonlar bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining 4-yo'nalishida «Farmatsevtika sanoatini yanada rivojlantirish, aholi va tibbiyot muassasalarini arzon, sifatli dori vositalari bilan ta'minlanishini yaxshilash» yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan¹. Bu borada, mahalliy o'simlik va hayvon xomashyolarining biologik faol moddalarini tadqiq qilish, ularning tuzilishi va faolligini o'rganish hamda ular asosida yangi, samarali dori vositalarini yaratish muhim ahamiyatga kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil, 7-noyabrdagi PF-5229-con «Farmatsevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-fevraldagi PQ-2640-son «Farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori hamda ushbu soha bo'yicha qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishida olib borilgan tadqiqotlar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-con «2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoni

rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yoʻnalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Dunyoda hozirgi kunda koʻplab ilmiy markazlarda oʻsimlik manbalaridan biologik faol moddalarni ajratib olish va ularni modifikatsiya qilishga doir tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, G.A.Tolstikov, L.A.Baltina, L.R.Mixaylova va boshqalar (Rossiya) tomonidan shirinmiya oʻsimligi ustida turli tadqiqotlar olib borilgan va ulardan yalangʻoch shirinmiya (*Glycyrrhiza glabra. L.*), Ural shirinmiyasi (*Glycyrrhiza uralensis Fish*) va Korjinskiy shirinmiyasi (*Glycyrrhiza Korshinski G*) toʻliqroq oʻrganilgan. Bunda shirinmiya oʻsimligi ildizidan glitsirizin kislotani (GK) ajratib olish va uni gidroliz qilib glitsirret kislotasi (GIK) olish va tozalash usullari ishlab chiqilgan. V.M. Adanin, M.A. Xaleskiylar (Rossiya) glitsirret kislotasining karboksil guruhi boʻyicha bir qator reaksiyalarni amalga oshirganlar. Ular 3-O-atsetilglitsirret kislotasi (3-O-AGIK) xlorangidridining (XA) diaminlar, aminospirtlar va merkaptoaminlar bilan reaksiyalarini oʻrganganlar. R.X. Gayanov, X.O. Kim, I.P. Irismetov, M.I.Goryayevlar (Rossiya) GIK amidlari sintezi boʻyicha bir qancha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Bunda ular 3-O-AGIK amidlarini 3-O-atsetildezoksiglitsirret kislotasi (3-O-ADGIK) amidlariga oʻtkazish reaksiyalarini oʻrganishgan. L.A. Baltina, R.M. Kondratenko va A.K. Bulgakovlar (Rossiya) tomonidan GIKning gidrazid farmakafor guruhi tutgan hosilalari sintez qilingan boʻlib, ular orasida 3-O-AGIKning N'-(4-gidroksibenziliden)-gidrazidli hosilasi mikroblarga qarshi yuqori faollikni namoyon qilgan. Shuningdek, ushbu hosila *Escherichia coli*, *Proteus vulgaris*, *Klebsiella pneumonia*, *Staphylococcus aureus*, *Citrobacter diversus*, *Enterobacter aerogenes*, *Pseudomonas aeruginosa*, *Ent. Cloace* kabi bakteriyalarga nisbatan antibakterial faollikni ham namoyon etishi aniqlangan. Bir guruh Xitoy olimlari (Heng Song, Yinxing Sun, Guanglin Xu, Bingbo Hou, Guizhen A) glitsirret, dezoksiglitsirret, 3 β -atsetoksiglitsirret hamda 3 β -piperidilatsetoksiglitsirret kislotalarining 5-(4-gidroksifenil)-3H-1,2-ditioil-3-tion bilan efirlarini sintez qilishgan va ularning turli xil yalligʻlanishlarga hamda oʻsmalarga qarshi yuqori faollikga ega ekanliklarini aniqlashgan. Olingan birikmalarning yalligʻlanishga qarshi faolliklari aspirin va GIK faolliklari bilan teng va ulardan yuqori ekanligi koʻrsatishgan. Olingan birikmalarning turli xildagi oʻsimtalarga qarshi faolligi GIKga nisbatan 1,6 barobar yuqori ekanligini koʻrsatib oʻtishgan.

Mamlakatimizda mazkur yoʻnalishda bir qator samarali ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yoʻnalish boʻyicha OʻzR FA Bioorganik kimyo institutida k.f.d., professor D.N.Dalimov boshchiligida katta ilmiy maktab yaratilgan. Jumladan, professorlar A.A.Axunov, M.B.Gafurov, A.D.Matchanov hamda katta ilmiy xodimlar H.A.Yuldashev, R.S.Esanovlar tomonidan GK va GIKning turli xil hosilalari va kompleks birikmalari olinib, ularning biologik faolliklari hamda kimyoviy tuzilishlari oʻrtasidagi bogʻliqliklarni oʻrgangan holda tibbiyot, qishloq xoʻjaligining tegishli yoʻnalishlari uchun amaliyotga tatbiq etilmoqda.

Dunyoda olib borilayotgan tadqiqotlarning aksariyat qismi tabiiy biologik faol moddalarni kimyoviy modifikatsiya qilish va ular asosida tibbiyotda virusli

kasalliklarini davolash, turli xil etiologiyali immunotanqisliklar uchun yangi dori vositalarini yaratish, ularning tuzilishi va biologik faolligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, organizm uchun mumkin bo'lgan nojo'ya ta'sirlarni kamaytirish hamda ularning ta'sir ko'rsatish mexanizmini ochib berishga qaratilgan bo'lib, hozirgi kungacha ushbu jarayonlar to'liq yoritilmagan.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti huzuridagi Agrobiotexnologiyalar va Biokimyo ITIning "O'simliklarning o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi biotik va abiotik omillar ta'sirini fiziologik faol maodalar yordamida boshqarish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot rejasini (2017-2022 y.y.), Bioorganik kimyo instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № G.R. 01.200009380 «O'simlik bioregulyatorlarini ajratib olish, tuzilishini, ta'sir qilish mexanizmini va modifikatsiyasini o'rganish» (2000–2002 y.y.) hamda FPMI-T.2-18 «2-alkil(aril)-5-amino 1,3,4-tiadiazol qoldig'ini tutgan ayrim tabiiy triterpen kislotalari hosilalarining biologik faolligi» (2018-2020 y.y.) mavzusidagi amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: shirinmiya ildizi tarkibidan ajratib olingan GK aglikoni - GIKning yangi hosilalari (amidlari, efirlari) sintezi hamda ularning kimyoviy tuzilishini va biologik faolligini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oldindan ma'lum usullar asosida texnik glitsirrizin kislotadan glitsirret kislotasini olish, tozalash, fizik-kimyoviy kattaliklarini aniqlash;

glitsirret kislotadan 3-atsetoksiglitsirret kislotasi va uning xlorangidridini sintez qilish, tozalash, fizik-kimyoviy kattaliklarini aniqlash orqali identifikatsiya qilish;

3-atsetoksiglitsirret kislotasining birlamchi va ikkilamchi aminlar bilan amidlarini sintez qilish, tozalash, fizik-kimyoviy kattaliklarini aniqlash hamda ularning kimyoviy tuzilishini fizik-tadqiqot usullari (UB-, IQ-, ^1H va ^{13}C YaMR spektroskopiya, mass-spektrometriya, RTT) asosida tasdiqlash;

3-atsetoksiglitsirret kislotasining ayrim alifatik spirtlar hamda geterohalqali aminospirtlar bilan murakkab efirlarini sintez qilish, tozalash, fizik-kimyoviy kattaliklarini aniqlash va ularning kimyoviy tuzilishini fizik-tadqiqot usullari (UB-, IQ-, ^1H va ^{13}C YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya) asosida tahlil qilish; sintez qilingan birikmalarning biologik faolliklarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida glitsirret kislota, 3-atsetoksiglitsirret kislota, 3-atsetoksiglitsirret kislotaning xlorangidridi, qator birlamchi va ikkilamchi aminlar, ayrim alkaloidlar, aminospirtlar olingan.

Tadqiqotning predmeti texnik GK dan GIK olish, GIKdan 3-O-AGIK va uning xlorangidridini, 3-O-AGIKning yangi amidlarini, murakkab efirlarini sintez qilish, ularning kimyoviy tuzilishini va biologik faolligini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishini bajarishda organik va bioorganik kimyo (filtrlash, qayta kristallash, haydash, ekstraksiya, neytrallash), fizik-kimyoviy (UB-, IQ-, ^1H , ^{13}C YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya, rentgen tuzilish

tahlili - RTT), xromatografik (yupqa qatlamli, yuqori samarali suyuqlik xromatografiya) hamda farmako-toksikologik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

GIKdan 3-O-AGIK sintez qilinib, uning aromatik, geterohalqali aminlar va alkaloidlar bilan yangi amidlari (20 ta) sintez qilingan. Ularning kimyoviy tuzilishi va ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari aniqlangan;

3-O-AGIKning qator alifatik va geterohalqali spirtlar bilan yangi murakkab efirlari (13 ta) sintez qilingan, ularning tuzilishi va ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari aniqlangan;

ilk marotaba 3-O-AGIKning sitizin alkaloidi bilan sintez qilingan amidning - (N-(sitizil)-3- β -atsetil-11-okso-olean-12-yen-18 β -H-30-amid) monokristali olingan, uning kimyoviy tuzilishi RTT usulida aniqlangan, kristall panjaralari singoniyalari asosida uning kristall panjaralari rombik tuzilishga ega ekanligi isbotlangan;

ilk marotaba 3-O-AGIKning piperidin bilan olingan amidi, izopropilsitizin, etilsitizin bilan olingan murakkab efirlari toksik gepatitda (TG) (*in vivo*) nafas olish va fosforli oksidlanish (FO) jarayonida mitoxondriyaga (Mx) ta'siri aniqlangan, bunda TG guruhidagi hayvonlar jigarida Mx ning funksional va metabolik ko'rsatkichlarini yaxshilashi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

3-O-AGIKning sitizin alkaloidi bilan olingan amidning monokristali RTT usulida tahlil asosida kristall tuzilishi atseton va suvning solvat molekularini o'z ichiga olgani aniqlangan;

3-O-AGIKning sitizin alkaloidi bilan olingan amidi kristalining kichik mustaqil birlik qismiga bir molekula amidga bir molekula atseton va ikkita molekula suv to'g'ri kelishi, mezbon molekulasida proton-donor guruhlari mavjud bo'lmagani uchun atseton molekulasi u bilan vodorod bog'i orqali o'zaro ta'sirlashmagani, shu sababli 2 xil (dominant va minor komponent sifatida) holatda 7:3 nisbatda tartibsiz joylashganligi aniqlangan;

3-O-AGIKning hosilalari kalamush jigari mitoxondriyalari membranasining Ca^{2+} ga bog'liq PTP ni ingibirlash faolligi 50 va 100 mkM konsentratsiyalarda 3-O-AGIKning o-metilanilin, p-metilanilin, p-aminoazobenzol bilan olingan amidlari 100 mkM, anilin, o-metilanilin, p-metilanilin bilan olingan amidlari va lupinin bilan olingan murakkab efiri 50 mkM konsentratsiyada yaxshi ingibirlash xossasini namoyon etganligi, aksincha o-xloranilin, aminobenzoy kislota bilan olingan amidlarning esa 2 xil konsentratsiyada ham ingibirlash faolligi mavjud emasligi aniqlangan;

3-O-AGIKning hosilalari kalamush jigari mitoxondriyalarida lipidlarning peroksidli oksidlanish (LPO) jarayoniga ta'siri aniqlangan, 3-O-AGIKning anilin, m-nitroanilin, o-gidroksianilin bilan olingan amidlari hamda lupinin va propil spirti bilan olingan murakkab efirlari LPO jarayonida kuchli ingibirlash xossasini namoyon etishi isbotlangan;

3-O-AGIKning piperidin bilan amidi, izopropilsitizin, etilsitizin bilan olingan murakkab efirlari toksik gepatitda (TG) (*in vivo*) hayvonlar jigarida Mx ning

fosforillovchi nafas olish tezligi glutamat malatning oksidlanishi paytida o'rtacha 12% ga kamayganligi aniqlangan; nikotinamidadenin dinukleotidga (NAD) bog'liq substratlarning oksidlanishi vaqtida nafas olishni nazorat qilish (DK) va ADF/O koeffitsiyentlarining mos ravishda 49% va 31% ga sezilarli pasayishiga olib kelishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi sintez qilib olingan moddalarni tadqiq qilishda zamonaviy fizik-kimyoviy va biologik tadqiqot usullaridan foydalanilganligi; tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama etilganligi, tajribalar natijalarini O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK tomonidan tan olingan mahalliy va xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilganligi bilan asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati GIKning yangi hosilalari, qator alifatik va geterohalqali spirtlar bilan yangi murakkab efirlari sintez qilinganligi, 3-O-AGIKning sitizin alkaloidi bilan sintez qilingan yangi amidning monokristali kristall panjaralari singoniyalari asosida uning kristall panjaralari rombik tuzilishga ega ekanligi, 3-O-AGIKning piperidin bilan olingan amidi, izopropilsitizin, etilsitizin bilan olingan murakkab efirlari toksik gepatitda hayvonlar jigarida mitoxondriyalarning nafas olish va fosforli oksidlanish jarayonida funksional va metabolik ko'rsatkichlarini yaxshilashi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sintez qilingan yangi amidlar (3-O-AGIKning o-metilanilin, p-metilanilin, p-aminoazobenzol, anilin bilan olingan amidlari va lupinin bilan olingan murakkab efiri) kalamush jigari mitoxondriyalari membranasi Ca^{2+} ga bog'liq PTP faolligini ingbirlash, 3-O-AGIKning anilin, m-nitroanilin, o-gidroksianilin bilan olingan amidlari hamda lupinin va propil spirti bilan olingan murakkab efirlari kalamush jigari mitoxondriyalarida LPO jarayonini kuchli ingbirlashi hamda 3-O-AGIKning piperidin bilan olingan amidi, izopropilsitizin, etilsitizinlar bilan olingan murakkab efirlari toksik gepatitda Mx faoliyatini tiklash va normallashtirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari biologik faol triterpen kislotalari hosilalarini sintezlash, ularni modifikatsiya qilish, tuzilishi va biologik faolliklari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash asosida yangi samarali dori vositalarini yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Glitsirret kislotaning yangi hosilalari sintezi va biologik faolligi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

olingan 1 ta yangi kimyoviy birikmaning (N-(sitizil)-3- β -atsetil-11-okso-olean-12-en-18 β -H-30-amid) kristall tuzilishi aniqlanib, Kembrij kristallografik ma'lumotlar bazasiga (The Cambridge Structural Database, <https://www.ccdc.cam.ac.uk/solutions/csd-system/components/csd/> Ref. Cod: VALQAB) kiritilgan. Natijada bazaga kiritilgan kimyoviy modda shunga o'xshash birikmalarni sintez qilishda, tuzilishini tavsiflashda taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalanish imkonini bergan;

GIK hosilalari sintezi, ularning tuzilishi va biologik faolliklari natijalaridan xorijiy ilmiy nashrlarda glitsirret kislotaning hosilalari sintezi va biologik faolliklarini tahlil qilish bo'yicha e'lon qilingan ilmiy natijalarga yuqori impakt-

faktorga ega xorijiy ilmiy jurnallarda havolalar keltirilgan: (Arabian Journal of Chemistry 2016, V.9, No.3, 390-399, WoS, IF=4.553; International Journal of Molecular Sciences 2022, V.23, No11803, 1-29 WoS, IF=5.6; Chemical Reviews 2014, V.114, No.1, 712–778, WoS, IF=46.568). Natijada, mutaxassislarga glitsirret kislotasi hosilalarini sintez qilish va tuzilishini aniqlash bo'yicha qo'shimcha ma'lumot olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAKning falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 4 ta xorijiy (Scopus va Web of Science) va 3 ta respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 112 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zaruriyligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ektlari va predmetlari tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo'yicha xulosalar qilingan hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Triterpen kislotalar va ularning biologik faolliklari”** deb nomlangan birinchi bobi adabiyotlar tahliliga bag'ishlangan bo'lib, unda shirinmiya o'simligi haqida, unga dorivorlik xususiyatlarni beradigan GK, uning tuzlari hamda GIK, uning hosilalarini olish usullari, tuzilishlarini o'rganish va biologik faolliklari bo'yicha adabiyotlardagi manbaalarning tahlillari keltirilgan. Bob so'ngida bob bo'yicha umumiy xulosalar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“GIKni yangi hosilalari sintezi va ularning xususiyatlarini o'rganish”** deb nomlangan ikkinchi bobi barcha olingan yangi hosilalarning fizik-kimyoviy xususiyatlari, spektral ma'lumotlarini tahlil etishga bag'ishlangan. Ma'lum usullar yordamida shirinmiya ildizidan GK, GKMAT hamda GIK olinib, GIKdan 3-O-AGIKni va uning xlorangidridini sintez qilindi. Olingan 3-O-AGIKning xlorangidridi asosida qator amidlar, murakkab efirlar sintez qilingan hamda ularning fizik-kimyoviy kattaliklari (1-jadval) aniqlandi. Sintez qilingan moddalarning tuzilishi UB-, IQ-spektroskopiya, mass-spektrometriya usullari yordamida tadqiq etildi. 3-O-AGIKning ayrim geterohalqali aminlar bilan amidlari

sintez qilindi. Olingan amidlarning tuzilishlari UB-, IQ- ^1H , ^{13}C YaMR-spektroskopiya, mass-spektrometriya usullari asosida o'rganildi.

3-O-AGIKning qator aminlar (benzilamin, 2-metilanilin, 4-metilanilin, anilin, 2-xloranilin, 3,4-dixloranilin, 2-nitroanilin, 3-nitroanilin, 4-nitroanilin, 2-gidroksianilin, 2-aminobenzoy kislotasi, 2-aminopiridin, 4-aminopiridin, 4-aminoazobenzol, 1-aminonaftalin, 4-aminoantipirin) bilan amidlari sintezi quyidagi sxema asosida olib borildi.



1-sxema. 3-O-AGIK amidlari sintezining umumiy sxemasi

1-jadval

Sintez qilingan 3-O-AGIK amidlarining ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari

№	Shifr (AXD-)	R-	Brutto formula	M_r	T.suyuq., $^{\circ}\text{C}$	R_f , (sistema)	Unum, %
1	3.27	a	$\text{C}_{39}\text{H}_{55}\text{O}_4\text{N}$	601	179-184	0,62(3)	89,1
2	3.42	b	$\text{C}_{39}\text{H}_{55}\text{O}_4\text{N}$	601	256-260	0,78(3)	70,7
3	3.47	d	$\text{C}_{39}\text{H}_{55}\text{O}_4\text{N}$	601	180-182	0,65(3)	74,9
4	3.25	e	$\text{C}_{38}\text{H}_{53}\text{O}_4\text{N}$	587	163-167	0,76(3)	80,9
5	3.49	f	$\text{C}_{38}\text{H}_{52}\text{O}_4\text{NCl}$	621	278-281	0,88(4)	83,7
6	3.48	g	$\text{C}_{38}\text{H}_{51}\text{O}_4\text{NCl}_2$	656	171-173	0,75(3)	64,2
7	3.24	h	$\text{C}_{38}\text{H}_{52}\text{O}_6\text{N}_2$	632	280-282	0,74(4)	64,1
8	3.7	i	$\text{C}_{38}\text{H}_{52}\text{O}_6\text{N}_2$	632	230-232	0,86(2)	69,1
9	3.22	j	$\text{C}_{38}\text{H}_{52}\text{O}_6\text{N}_2$	632	192-196	0,75(3)	71,4
10	3.50	k	$\text{C}_{38}\text{H}_{53}\text{O}_5\text{N}$	603	248-250	0,76(4)	91,2
11	3.21	l	$\text{C}_{39}\text{H}_{53}\text{O}_6\text{N}$	631	316-318	0,77(3)	78,4
12	3.6	m	$\text{C}_{37}\text{H}_{51}\text{O}_4\text{N}_2$	587	198-202	0,61(2)	86,7
13	3.5	n	$\text{C}_{37}\text{H}_{51}\text{O}_4\text{N}_2$	587	284-288	0,65(2)	68,4
14	3.18	o	$\text{C}_{44}\text{H}_{57}\text{O}_4\text{N}_3$	691	268-270	0,86(3)	80,3
15	3.23	p	$\text{C}_{42}\text{H}_{55}\text{O}_4\text{N}$	637	198-202	0,68(3)	82,4
16	3.19	q	$\text{C}_{43}\text{H}_{59}\text{O}_5\text{N}_3$	697	294-296	0,83(2)	80,1

Sistemalar: [2]-xloroform:metanol (5:1); [3]-xloroform:metanol (7:1); [4]-xloroform:metanol (10:1)


Sintez qilingan amidlarning tuzilishi qator spektroskopik usullar (UB-, IQ-, ^1H va ^{13}C YaMR spektroskopiya) asosida tahlil qilindi. Adabiyotlardan ma'lumki GIK ning UB-spektrida yutilish maksimumi 256 nm da namoyon bo'ladi, bu GIK molekulasining «C» halqasidagi karbonil guruhi bilan konyugirlangan qo'shbo'g'ga tegishli bo'lgan $n \rightarrow \pi^*$ elektron o'tishlarga xos xolatdir. AXD-3.27 amidning UB-

spektrida yutilish maksimumi 253 nm da kuzatilgan. Olingan amidning UB-spektrida qisman «gipsoxrom» siljish namoyon bo'lganligidan dalolat beradi.

Sintez qilingan amidlarning IQ-spektrlari dastlabki moddalar spektriga taqqoslab o'rganildi. Buning uchun 3-O-AGIKning IQ-spektridagi asosiy xarakteristik tebranish chastotalariga mos keluvchi yutilish chiziqlarini ko'rib chiqish zarur bo'ladi: 3308 sm^{-1} da C-30 holatdagi OH guruhi, 1704 sm^{-1} da esa uning karbonil quruhiga xos valent tebranishlariga tegishli yutilish chiziqlari kuzatiladi. Bundan tashqari 1727 sm^{-1} da 3-O-AGIK molekulasining C-3 holatidagi karbonil guruhining valent tebranishiga tegishli yutilish chiziqlari namoyon bo'ladi.

AXD-3.27 amidning IQ-spektrida quyidagi yutilish chiziqlari kuzatildi: dastlabki modda - 3-O-AGIK ning 3308 sm^{-1} dagi C-30 atomi OH guruhining valent tebranshiga hos yutilish chizig'ining amid IQ-spektrida kuzatilmaganligi, 3359 sm^{-1} da NH bo'g'ining valent tebranishiga hos bo'lgan yutilish chizig'ining mavjudligi, shuningdek amid bo'g'ining hosil bo'lishi sababli 3-O-AGIK IQ-spektrida 1703 sm^{-1} kuzatilgan C=O bo'g'ining valent tebranishlariga hos yutilish chiziqlarining C3 atomining atsetil guruhidagi C=O guruhi valent tebranishiga tegishli bo'lgan yutilish chizig'i bilan birga 1727 sm^{-1} da namoyon bo'lishi amid bo'g'ining hosil bo'lganligidan dalolat bersa, amid IQ-spektrida 1519 sm^{-1} , 699 sm^{-1} sohalarida benzil radikalining aromatik halqasiga hos valent va deformatsion tebranishlariga tegishli yutilish chiziqlarining kuzatilishi amidning tuzilishiga mos keladi.

Sintez qilingan barcha amidlarning asosini 3-O-AGIK tashkil etganligi bois, barcha amidlarning YaMR-spektrlarida 3-O-AGIK molekulasidagi atomlarga tegishli rezonans signallar kuzatiladi, spektrlardagi kuzatilgan yangi signallar esa bir-biridan amid sintezida ishtirok etgan dastlabki aminning tuzilishiga hos rezonans signallarning kuzatilishi va joylashgan o'rni bilan farqlanadi.



1-rasm. AXD-3.27 amidning ^1H YaMR spektri

Masalan, 3.27 amidning ^1H YaMR spektrida C-12 uglerod atomi protoni (H12) kuchsiz maydon sohasi - 5.54 m.u.da singlet xolidagi rezonans signalini namoyon qilgan. C-3 uglerod atomidagi aksial protonining (H_a) qo'shni (C-2) uglerod atomi protonlarining vitsinal spin-spin konstantasi ta'sirida 4.49 m.u.da dublet-dublet rezonans signali kuzatilgan.


C1 uglerod atomidagi ekvatorial proton C-11 atomidagi karbonil guruhning dezekranlash xususiyati ta'sirida maydonning kuchli sohasidan kuchsiz sohasi tomon siljib, 2.76 m.u.da ($J=13.6, 3.6$ Gs) nosimmetrik dublet holida rezonans signalini namoyon qilgan. ^1H YaMR-spektrda 2.32 m.u.dagi singlet xolatda rezonans bergan signal molekulaning tuzilishiga ko'ra, yaqin spin-spin ta'siriga ega bo'lmagan C-9 atomi protoniga (H9) tegishlidir. Atsetil radikalining metil guruhi protonlari singlet ko'rinishida 2.06 m.u.da rezonans beradi. Molekula tarkibidagi metil guruhlari protonlarining rezonans signallari spektrning kuchli maydon sohasida (0.81-1.35 m.u.da) o'z aksini topgan.

Spektrning o'ziga hos tomoni shundaki; 4.49 m.u.da (2H, dd., $J = 14.6, 5.5, 5.7$, H-7') amid guruhi bilan aromatik halqani bog'lab turuvchi metilen ($-\text{CH}_2-$) guruhi protonlarining dublet-dublet ko'rinishdagi, aromatik halqadagi protonlar 6.8-7.2 m.u.larda multiplet holida hamda amid bo'g'idagi ($-\text{CO}-\text{NH}-$) protonning 6.13 m.u.da (1H, d.d., $J = 5.7, 5.5$ NH) keng shaklda dublet-dublet ko'rinishidagi rezonans signallarning hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi.

C-29 atomi protonlariga kuchsiz maydon sohasi tomon 1.30 m.u.gacha siljish xarakterli bo'lib, kiritilgan radikalning tabiatiga ko'ra bu signal ^1H YaMR-spektrida 1.24-1.30 m.u. oralig'ida rezonans berishi mumkin.

Sintez qilingan amidlarning ^1H YaMR-spektrlarida aromatik protonlar va aromatik protonlarga almashgan guruhlarga xos rezonans signallari ham o'z aksini topgan. Amid guruhining protoni ($\text{CO}-\text{NH}-$) aromatik aminning tabiatiga qarab ^1H YaMR-spektrining 6.13-11.59 m.u.lar oralig'ida rezonans signallarini namoyon qiladi.

AXD-3.27 moddaning ^{13}C YaMR-spektrida asosiy xarakteristik signallar quyidagilardan iborat: 3-O-AGIKning C-30 uglerod atomi signali 181,59 m.u.da kuzatilgan bo'lsa, AXD-3.27 moddada esa 175.75 m.u.da, kuzatilgan. Bunda elektronodonor guruhlarning kiritilishi kimyoviy siljishlarni kuchli maydon tomon surilishiga sabab bo'lgan.



2-rasm. AXD-3.27 moddaning ^{13}C YaMR-spektri


AXD-3.27 amidning ^{13}C YaMR-spektrida amid guruhi bilan aromatik halqani bog'lab turuvchi metilen ($-\text{CH}_2-$) guruhidagi uglerodning signali 43.73 m.u.da

kuchli maydonda kuzatilgan bo'lsa, C-1', C-2', C-3', C-4', C-5', C-6' uglerodlarning signallari mos ravishda 138.75 (C-1'), 127.83 (C-2'), 128.85 (C-3'), 127.63 (C-4'), 128.85(C-5'), 127.83 (C-6') m.u.larida namoyon bo'lgan.

Sintez qilingan amidning tuzilishini yana ham to'laqonli o'rganish maqsadida, mass-spektrometriya usulida tahlillar amalga oshirildi. Natijada AXD-3.27 moddaga hos bo'lgan molekulyar ionning massasi 602,4340 m/z da namoyon bo'ldi. Shu bilan birga 1203,8631 m/z da ushbu amidning dimer shakliga tegishli molekulyar ionning ham massasi kuzatilganligi AXD-3.27 amid tuzilishiga mos moddaning sintez bo'lganligidan dalolat beradi

3-O-AGIK ning ikkilamchi aminlar bilan amidlari sintezi

Tadqiqotimiz davomida 3-O-AGIKning ikkilamchi aminlar bilan amidlari sintezini amalga oshirdik (2-sxema). Ushbu amidlar sintezi ham yuqoridagi 3-O-AGIKning birlamchi aminlar bilan amidlar sintezi usullariga asoslangan holda olib borildi. Olingan amidlarning ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari 2-jadvalda keltirilgan.



2-sxema. 3-O-AGIK ning ikkilamchi aminlar bilan amidlari sintezi sxemasi

2-jadval

Sintez qilingan amidlarning ayrim fizik-kimyoviy kattaliklari

№	Shifr AXD	R-radikal	Brutto formula	Mr	T.suyuq., °C	R _t (s)	Unum, %
1	3.37	r	C ₃₇ H ₅₇ O ₄ N	579	236-240	0,67(2)	81,2
2	3.38	s	C ₃₆ H ₅₅ O ₅ N	581	230-234	0,84(3)	83,5
3	3.39	t	C ₄₂ H ₆₀ O ₄ N ₂	656	232-234	0,56(4)	74,7
4	3.40	u	C ₄₃ H ₅₀ O ₅ N ₂	674	246-249	0,62(4)	78,9

Sistemalar: [2]- xloroform:metanol (5:1); [3]- xloroform:metanol (7:1); [4]- xloroform:metanol (10:1)

Olingan amidlarning kimyoviy tuzilishini isbotlashda ¹H, ¹³C YaMR va IQ-, UB-spektroskopik usullardan foydalanildi. Sintez qilingan amidlarning ¹H YaMR-spektrlari asosan 3-O-AGIKning ¹H YaMR-spektriga xos signallar bilan xarakterlanib, ular bir-biridan karboksil guruhga ulangan radikallarga xos rezonans signallar bilan farq qiladi.


AXD-3.37 moddaning UB-spektrida yutilish maksimumi 251 nm da namoyon bo'lgan, bu holatda ham GIK molekulasining «C» halqasidagi karbonil guruhi bilan konyugirlangan qo'sh bog'ga tegishli bo'lgan n→π* elektron o'tishlarga xos bo'lgan yutilish maksimumiga (256 nm) nisbatan AXD-3.37 moddaning UB-spektrida yutilish qisman «gipsoxrom» siljish namoyon bo'lganligini ko'rsatdi.

Sintez qilingan amidlarning IQ-spektrlari dastlabki moddalar spektriga taqqoslab o'rganildi. Buning uchun 3-O-AGIKning IQ-spektridagi asosiy xarakteristik tebranish chastotalariga mos keluvchi yutilish chiziqlarini ko'rib chiqish zarur bo'ladi: 3308 sm⁻¹ da C-30 holatdagi OH guruhi, 1704 sm⁻¹ da esa

uning karbonil quruhi valent tebranishlariga tegishli yutilish chiziqlari kuzatiladi. Bundan tashqari 1727 cm^{-1} da 3-O-AGIK molekulasining C-3 holatidagi karbonil guruhining valent tebranishiga tegishli yutilish chiziqlari namoyon bo'ladi.

AXD-3.37 moddaning IQ-spektrida $3500\text{-}3000\text{ cm}^{-1}$ sohasida yutilish chizig'ining kuzatilmaganligi, shuningdek 3-O-AGIKdan amidga o'tilganda C-30 atomidagi C=O bog'ining valent tebranishiga tegishli bo'lgan yutilish chizig'ining 1703 cm^{-1} dan 1633 cm^{-1} ga qadar kuchsiz maydon tomon siljishi, AXD 3.37 moddaning tuzilishiga mos ikkilamchi amidning hosil bo'lganligini tasdiqlaydi. Bundan tashqari amid IQ-spektrida 1722 cm^{-1} da C-3 atomi bilan bo'lgan atsetil guruhidagi C=O bo'g'ining valent tebranishlariga tegishli, 1653 cm^{-1} da C-11 atomidagi C=O bo'g'ining valent tebranishlariga tegishli yutilish chizqlari ham mavjudligi ushbu formulaning AXD-3.37 modda tuzilishiga mos kelishidan dalolat beradi.

AXD-3.37 moddaning ^1H YaMR-spektrida piperidin halqasining H_{2a} aksial protoni piperidil guruhining anizotropik ta'siri natijasida kuchsiz maydonda 3.54, 3.58 (2H, dt, H-2', $J = 13.3, 5.4$) m.u.larda rezonans signallarini hosil qilgan. Azot atomiga nisbatan α -holatda joylashgan boshqa H_{6e} va H_{6a} protonlar jufti 3.54, 3.58 (2H, dt, H-6', $J = 13.3, 5.4$) m.u.larda tegishli ravishda rezonans signallarini namoyon etgan. Piperidin halqasidagi boshqa protonlarning signallari spektrning kuchli maydon sohasida (1.55 (2H, m, H-3'), 1.65 (2H, m, H-4'), 1.55 (2H, m, H-5') m.u.larda) kuzatilgan.



3-rasm. AXD-3.37 moddaning ^1H YaMR-spektri

Kimyoviy siljishlarining yuqorida keltirilgan qiymatlaridan ko'rinib turibdiki, amid bog'idagi azotga nisbatan α -xolatda joylashgai CH_2 protonlarining kimyoviy siljish qiymatlari dastlabki aminlardagiga nisbatan 1.0-1.5 m.u. qiymatga kuchsiz sohaga siljigan.

Atsetil radikalining metil guruhi protonlari signallari 2.05 m.u.da singlet ko'rinishida kuzatilgan. Molekula tarkibidagi metil guruhlari protonlarining rezonans signallari spektrning kuchli maydon sohasida (0.81-1.37 m.u.) o'z aksini topgan. C-12 uglerod atomi protoni (H_{12}) kuchsiz maydon sohasida 5.7 m.u.da singlet xolidagi rezonans signalini namoyon qilgan. C-3 uglerod atomidagi aksial protonining (H_a) qo'shni (C-2) uglerod atomi protonlarining vitsinal spin-spin konstantasi ta'sirida 4.52 m.u.da dublet-dublet rezonans signali kuzatilgan. Bu


ikkilamchi aminning amidi bo'lganligi uchun spektrda amid bog'i protoniga xos signallar kuzatilmadi.

AXD-3.37 moddaning ^{13}C YaMR-spektrida asosiy xarakteristik signallar quyidagilardan iborat hisoblanadi: AXD-3.37 moddaining C-30 uglerod atomi signali 173.74 m.u.da kuzatilgan. Bunda to'yingan halqali guruh kiritilganligi uchun ushbu kimyoviy siljish 3-O-AGIKdagi C-30 uglerodning signaliga nisbatan kuchli maydon tomon surilgan bo'lishi mumkin. Molekuladagi aksariyat uglerod atomlarining signallari kuchli maydon tomonda kuzatilgan. Bundan tashqari piperidin halqasidagi C-2', C-3', C-4', C-5', C-6' uglerodlarning signallari mos ravishda 46.63 (C-2'), 26.41 (C-3'), 24.80 (C-4'), 26.41 (C-5'), 46.63 (C-6') m.u.larda namoyon bo'lgan.


3-O-AGIKning ikkilamchi aminlar bilan olingan amidlari ichida sitizin bilan olingan amidni (AXD 3.40) alohida ta'kidlash joiz deb hisoblaymiz. Sababi AXD 3.40 amid atseton-suv sistemasida monokristall hosil qilgan. Olingan monokristallning rentgen tuzilish tahlili amalga oshirilgan.

